“VAQTGA DOIR MASALALAR ” MAVZUSINI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHDA INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH

Gulboyev Alimardon Olimjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi “Umumta’lim fanlar” kafedrasining matematika fani o‘qituvchisi
Djurayev Shavkat Orziqulovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi “Umumta’lim fanlar” kafedrasining informatika fani o‘qituvchisi



Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada “Vaqtga doir masalalar” mavzusini boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: test, vaqt birliklari, kalendar, fasllar, soatlar, misollar, katta vaqt birliklari, jadval.

Аннотация

В данной научной статье приведены о применении инновационных методов в преподавании предмета “Вопросы времени” в начальных классах.

Ключевые слова: тест, шкала времени, часы, примеры, большие единицы времени, таблица.

Annotation

This scientific article describes the topic “issues in time” about the use of innovative methods in the teaching of primary classes.

Keywords: test, time scale, clock, examples, large units of time, table.

Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me’yor bo‘lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko‘rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- test topshiriqlari o‘quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileti o‘zida nazorat qilinadigan o‘quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);
- hamma o‘quvchilar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;
- o‘quvchilar bilimiga haqqoniy baho berish mezoni oshadi;
- test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo‘lgan shkala yordamida o‘quvchilar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo‘yishga imkon beradi (reyting);
- o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;
- boshlang‘ich darajasini va har qanday vaqt oralig‘ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o‘lchashga sharoit yaratiladi;
- test nazorati kompyuterlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlarning asosiy afzalliklaridan biridir. O‘quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o‘z ifodasini topadi.

Umuman olganda test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o‘zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o‘qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o‘quv dasturini chuqur va har tomonlama o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Pedagogik testlarning bu afzalliklari AQShda munosib baholangan. Abituriyent (talabgor) larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo‘llash bo‘yicha AQSh tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda olib borilgan.

Agar testlarni turkumlashda ularning qo‘llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo‘lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.

Mutaxassislik fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to‘g‘ri javobli), ochiq, muvofiqlikni va to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o‘quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

Dars mavzusi:	Vaqtga doir masalalar
Darsning ta’limiy maqsadi:	O‘quvchilarga vaqt o‘lchov birliklari va ularning qo‘llanishi haqida ma’lumot berish.
Darsning tarbiyaviy ahamiyati:	O‘quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish, ularga vaqt masalalarida e’tiborga olinmaydigan kattaliklarni o‘rgatish, matematikaning hayotimiz har javhasida qo‘llanilishini ko‘rsatish, ota- onalarning o‘quvchilarga e’tiborsizligi maqsadida ularning mehrini oshirish va eng asosiy maqsadimiz vaqt masalalarini o‘quvchilarga mustahkam o‘rgatish.
Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:	O‘quvchilarga vaqt birliklari ustida mulohaza yuritish va ular bilan ishlash.
Darsning jihozi:	Jadvallar, rasmli misollar, tezkor savollar, ma’ruza matni, ko‘rgazmali qurollar.
Darsning borishi:	**1. Tashkiliy qism:** a) O‘quvchilar bilan salomlashish.

	b) O‘quvchilar davomatini aniqlash. v) Sinf xonasining gigiyenik holatiga e’tibor berish. **2. Asosiy qism:**
1. Yangi mavzu:	“Vaqtga doir masalalar”

Biz kichik yoshdagi yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga vaqt tushunchalarini o‘rgatishda maxsus misollar bilan turli usullardan foydalanamiz. Asosan vaqt birliklari sek, min, soat kabi kattaliklar bilan o‘rgatamiz, vaholangki bizda kun, hafta, oy, yil, fasl, asr kabi kattaliklar ham bor. Quyda vaqt birliklarini jadvalini keltiramiz.

Vaqt o‘lchov birliklari

Nomi	Qiymati
Sekund	1 sek
Daqiqa (min)	1 daqiqa=60 sek
Soat	1 soat=60 daqiqa=3600 sek
Kun	1 kun=24 soat=1440 daqiqa=86 400 sek
Hafta	1 hafta=7 kun=168 soat
Oy	1oy=30 kun (31,28)
Fasl	1fasl=3 oy=90 kun (91kun)
Yil	1 yil=12 oy=365 kun
Asr	1 asr=100 yil

Bu jadvaldan ko‘rib turibmizki, vaqt birliklarini faqatgina soniya, daqiqa, soatlardan iborat emas, undan katta vaqt birliklari ham mavjud. Biz bu birliklarni boshlang‘ich sinfda ko‘rsatishimiz sababi esa o‘quvchilar xotirasi eslab qolishga qodirligi va qiziqarli rasmlar va metodikalar bilan o‘rgatsak bolalar ongida vaqt tushunchasi kengroq tasvirlanadi. Bularni quydagi rasmda ko‘rish mumkin.







Ushbu kattaliklarning boshqa kattaliklar bilan ifodalanishini jadvalda ko‘rdik shunga binoan misollarda qo‘llab ko‘ramiz.

1-misol:

1) 3 soat 30 min=_____min
2) 6min 24 sek=_____sek
3) 4 hafta 6 kun= _____kun

Yechish: 1) demak yuqoridagi jadvalga ko‘ra 1 soat 60 min shu sababli 3*60=180

Demak, 180min+30 min = 210 min Javob: 210 min

2) 1 min=60 sek, shu sababli 6*60=360 sek, 6 min 360 sek ekanligini topib bo‘lgach 360 sek+24 sek = 384 sek ekanligini topish mumkin. Javob: 384 sek

3) 1 hafta 7 kun ekanligi jadvaldan ma’lum, shu sababli 4*7 kun = 28 kun qilib topamiz va 6 kunni qo‘shamiz 28 kun+6 kun=34 kun Javob: 34 kun

Shu tariqa bir vaqt o‘lchov birligini boshqasi orqali ifodalash yoki ular ustida amallar bajarishimiz mumkin ekan. Ana endi vaqt birliklarini boshqacha usulda o‘rganishga va eslab qolishga harakat qilamiz.

Misol: Ma’lumotlar



Qizaloq masha har kuni 8:00 dan 12:00 gacha maktabda bo’ladi



Qish fasli 3 oydan



Har bir gnom bir kunda 5 soatdan ishlaydi

Quyosh bir kunda 10 soat nur sochadi



Savollar:

1) Gnomlar bir kunda jami necha soat ishlaydi
2) Quyosh bir kunda necha daqiqa nur sochadi
3) Qizaloq Masha maktabda necha soat o’qiydi
4) Qish fasli necha kundan iborat

Demak, biz misolni yechish uchun bir o‘lchov birligini boshqasi orqali ifodalashni bilishimiz kerak, masalan, 1-savolda gnomlar haqidagi savol 7 ta gnom bor va bu yerda har bir gnom 5 soatdan ishlaydi, misolni yechish uchun biz 7*5 soat =35 soat, demak, barcha gnomlar bir kunda jami 35 soat ishlar ekan.

Bu misoldan maqsad shundan iboratki, Masha haqidagi multfil’m, gnomlar haqidagi multfil’mlarni, quyoshning ko‘rinishini bolalar yaxshi bilishadi va shu sababli bolalar bu rasmlar orqali vaqtlarni tez hisoblaydi va keyinchalik yaxshi eslab qoladi, chunki yorqin ranglar bolalar xotirasida saqlanib qolinadi, shu sababli bolalar rasmlar orqali misollarni tez o‘rganadi.

Bolaalr uchun mavzu yuzasidan tezkor savollar

1) 5 daqiqa = sek
2) 2 soat = daqiqa
3) 3 hafta = kun
4) 4 oy = kun
5) 2 asr = yil
6) 120 sek = daqiqa
7) 7200 sek = soat
8) 1 soat 60 min = min
9) 3 hafta 2 kun = kun
10) 4 soat 4 kun 4 soat = soat

Bolalar navbat bilan bu savollarga tezkorlik bilan javob berishadi va mavzuni qanchalik o‘zlashtirilganligini shu orqali bilib olish mumkin.

Bizning maqsadimiz bu mavzuda bolalar yangi tushunchalarni o‘zlashtirish mustahkamlash, ularni hayotiy masalalarga qo‘llash orqali eslab qolish, jamoa bo‘lib ishlash, oilaviy muhitda birgalikda ishlab bilimini oshirish, tezkor savollarga javob berish orqali o‘z yangi mavzuni tushunganligini tekshirishdan iborat edi. Demak, biz bu bosqichlar orqali o‘z maqsadimizga yetishimiz mumkin. Eng muhumi sodda masalalar orqali o‘quvchilar yangi

mavzuni eslab qoladilar.

Bu usulning afzalligi shundaki:

1. O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadi.
2. O‘quv xonasidagi barcha o‘quvchilar qisqa muddatda baholanadi.
3. O‘quvchilar belgilangan javoblarni esda saqlashga harakat qiladilar.

Yakuniy qism:

Uyga vazifa:

1-Misol

dada	oyi	men	ustoz
_____yosh	____yosh	_____yosh	_____yosh
_____oy	_____oy	_____oy	_____oy
_____fasl	_____fasl	_____fasl	_____fasl

2-Misol



Samarqand **Jizzax**

Samalyot Jizzaxdan Samarqandgacha 1 soat 20 daqiqada bordi, qaytishda esa Samarqanddan Jizzaxgacha 80 daqiqada yetib keldi. Borish va kelish vaqtlari orasidagi farqni toping?

O‘quvchilar bu jadvalni to‘ldirishda oila azolari bilan birgalikda bajaradilar bunda bolalar ota-onasi bilan birgalikda bajarilgan ishdan zavq oladi va yaxshiroq ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.U. Bikbaeva, E.Yangabaeva, K.M.Girfanova. Математика. Дарслик. UO‘K: 372.851(075) 51(075) KBK 21.1ya71 B-56. 2013

2. Quchqarov A., Sariqova Sh., Usmonova P., Rahmonov U. Matematika. Darslik. – Toshkent. Yangiyul poligraf servis nashriyoti. 2007.

3. Махкамов, Ш. (2024). Davlat boshqaruv tizimining vujudga kelishi hamda davlat va uning moxiyati. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 379-382.

4. Мансуров, О. П., & Адизов, Б. З. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВО Б1ИОЭТАНОЛА ВТОРОГО ПОКОЛЕНИЯ ИЗ ВОЗОБНОВЛЯЕМОГО СЫРЬЯ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУЧНОГО И ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО, 109.